

AVO

"AVO bank" AJ
bankomatlaridan foydalanish tartibi

"AVO bank" AJ

bankomatlaridan foydalanish tartibi

"AVO bank" AJ (ro'yxat raqami 16/1, STIR 207257279) (keyingi o'rinnarda – "Bank") bankomatlaridan foydalanishda davom etish orqali mazkur qoidalarga roziligingizni bildirasiz.

Savollar tug'ilgan taqdirda, iltimos biz bilan bog'laning: +998 (78) 888–7887,
info@avo.uz.

Bankomat bilan ishslash tartibi:

1	Karta yoki to'lov stikerini kartrider yoki aloqasiz ridega qo'ying Bankomatda logotipi ko'rsatilgan to'lov tizimining (Visa, Master Card yoki boshqa) plastik kartasi, stikeri (shaxsiylashtirilgan to'lov kartasi turi – aloqasiz to'lov chipi o'rnatilgan stiker) yoki to'lov ilovasidan (Apple Pay, Google Pay va boshqalar) foydalaning. Agar siz kartani kartriderga qo'yadigan bo'lsangiz, magnitli chiziq pastda o'ng tarafda bo'lishi kerak. Agar karta chipli bo'lsa, unda karta chipi yuqoriga va oldinga qo'yiladi.
2	Tilni tanlang Bankomat karta yoki stikerni qabul qilgan zahoti, ekranda qurilmaning menyusi ko'rindi. Qurilmaning standart tili o'zbek tili. Siz ingliz yoki rus tillarini tanlashingiz mumkin.
3	PIN-kodni tering Bankomat kartaning yoki stikerning PIN-kodini kiritishni so'raydi. PIN-kodni bankomat klaviaturasida terish kerak, so'ngra "Enter" yoki "Kiritish" tugmasini bosish kerak.
4	Amalni tanlang PIN-kodni tergandan so'ng zarur amalni tanglang, masalan: <ul style="list-style-type: none">• Naqd pulni yechish/chiqarish;• Naqd pul bilan to'ldirish/kiritish;• Karta balansini so'rovi;• Karta PIN-kodini almashtirish.

5

Ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling

Agar naqd pulni yechayotgan bo'lsangiz:

- Siz ekranda tekliif etilgan summalardan birini tanlashingiz yoki summani mustaqil kiritishingiz mumkin;
- Ixtiyoriy miqdor bankomat ekranida ko'rsatilgan banknotlarning minimal nominaliga karrali bo'lishi kerak (bankomatda qanday banknotalar mavjudligiga qarab);
- Naqd pulni yechish uchun rozilik tasdiqlangandan so'ng plastik karta sizga qaytariladi;
- Bankomat plastik kartani unitilgan karta sifatida olib qo'ymasligi uchun bankomat ekranida ko'rsatilgan vaqt davomida plastik kartani oling;
- Bankomat zarur miqdordagi pul mablag'larini sanab bo'lislini va ularni kuyura qabul qiluvchi moslama orqali berilishini kuting;
- Bankomat kupyura qabul qiluvchi moslamani yopib, banknotalarni unutilgan sifatida saqlab qo'ymasligi uchun bankomat ekranida ko'rsatilgan vaqt davomida banknotalarni oling;
- "Chekni chop etish" yoki "operatsiyani yakunlash"ni tanlang;
- Operatsiya yakunlangandan so'ng bankomat ekran orqali sizga yana bir operatsiyani bajarishni taklif qiladi. "Kartani qaytarish" yoki "Bekor qilish"ni tanlash orqali bankomat bilan ishni yakunlaysiz.

Agar siz naqd pulni kiritadigan bo'lsangiz:

- Oldindan banknotadan qog'oz qisqichlari, rezinka, qadoqlash lentalarini olib tashlang. Tangalarni kiritish mumkin emas;
- Kupyura qabul qiluvchi moslamaga boshqa predmetlar tushib qolsa, bu qurilmaga shikast yetkazilishiga va banknotalarning tiqilib qolishiga olib keladi;
- Bankomat sizga summani kiritishni taklif qiladi;
- Kupyura qabul qiluvchi moslamaga pullarni kriting;
- Bankomat banknotalarni sanab bo'lislini kuting;
- Bankomat eskirgan banknotalar va haqiqiylik belgilari yomon holatda bo'lgan banknotalarni sizga qaytaradi.

Bankomat ekranda hisoblanadigan summani ko'rsatadi va sizga taklif etadi:

- Naqd pullarni qo'shimcha kiritish;
- Kiritilgan summani sizga qaytarish;
- Operatsiyani tasdiqlash.

Operatsiyani tasdiqlagandan so'ng "chekni chop etish" yoki operatsiyani "yakunlash"ni tanlang.

Operatsiya yakunlangandan so'ng bankomat ekranida sizga yana bir operatsiyani bajarish taklif etiladi. "Kartani qaytarish" yoki "Bekor qilish"ni tanlash orqali siz bankomatda ishni yakunlaysiz.

Agar bankomat sizga kartani qaytarmasa

Bank bankomat tomonidan olib qo'yilgan plastik kartalarni yo'q qiladi.

Bankomat plastik kartani olib qo'yishi mumkin bo'lган holatlar:

- Plastik kartaning o'g'irlanganlik fakti aniqlanishi;
- Plastik kartani olish uchun vaqtining tugashi;
- Bankomat ishida nosozlik (elektr yetkazib berish yoki aloqada uzilishlar, dasturiy ta'minot ishida jiddiy xatolar va boshqalar);
- Plastik kartaning amal qilish muddati tugashi;
- Plastik karta bloklangan (shubhali operatsiyalar bajarilishi tufayli yoki plastik karta yo'qotilganligi yoki o'g'irlanganligi tufayli stop-listda bo'lganligi tufayli);
- PIN-kod 3 marta xato kiritilishi.

Agar kiritilgan pullar hisobga tushmagan / kartadan yechilgan pullar berilmagan bo'lsa

Bankomatda ko'rsatilgan telefon raqami orqali Bank aloqa markaziga murojaat qiling (+998 78 888-78-87). Disput hodisasini ro'yxatga olish uchun operatorga xabar qiling:

1. bankomatda ko'rsatilgan bankomat raqami;
2. operatsiyani bajarish uchun foydalaniladigan karta raqami;
3. tranzaksiyani bajarishga urinish sanasi va vaqt;
4. bajarilayotgan tranzaksiya summasi.

Sizning murojaatingiz asosida disput hodisasi Bankka kelib tushgan kundan boshlab 15 kun davomida, agar qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshiruv, hujjatlar so'rovi talab etiladigan bo'lsa, Bankka kelib tushgan kundan boshlab 1 oygacha bo'lgan davrda Bank tomonidan ko'rib chiqiladi.

Pullar hisobga tushmasligi mumkin bo'lган holatlar:

- Naqd pullarni kirtishda eskirgan banknotalardan foydalanish;
- Kupyura qabul qiluvchi moslamaga boshqa predmetlarning tushishi;
- Banknotalarning o'zaro yopishtirilishi;

- Tranzaksiya bajarish paytida elektr quvvati yoki aloqaning uzilishi sodir bo'lishi;
- Siz plastik kartani olmagansiz va bankomat uni unutilgan sifatida olib qo'ygan (bu holatda bankomat banknotalarni unutilgan sifatida saqlab qoladi).

Bankomat tomonidan banknotalar berilmay qolishi mumkin bo'lgan holatlar:

- Bankomatning oldingi foydalanuvchisi tomonidan eskirgan naqd pullardan foydalanilganligi;
- Tranzaksiya bajarilishi paytida elektr energiyasi yoki aloqa uzilishi sodir bo'lishi;
- Banknota beruvchi qurilmada texnik nosozlik sodir bo'lishi;
- Siz plastik kartani olmagansiz, natijada bankomat uni unutilgan sifatida olib qo'ygan (bu holatda bankomat banknotalarni unutilgan sifatida saqlab qo'yadi).

Bankomatdan xavfsiz foydalanish bo'yicha tavsiyalar

- PIN-kod terishda klaviatura yoki raqamli panelni, xattoki yoningizda hech kim bo'lmasa ham qo'lingiz bilan yopib turing, unga firibgarlarning kamerasi qaratilgan bo'lishi mumkin;
- Atrofdagilarga bank kartasidan naqd pul summasini ko'rsatmang;
- Agar siz bankomatda naqd pul mablag'larini unutgan bo'lsangiz, mablag'larni qaytarish emitent-bankga zarur ma'lumotlar (bankomat manzili, bankomat identifikatori, operatsiya bajarilgan vaqt, agar mavjud bo'lsa bankomat cheki) ko'rsatilgan holda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga movofiq muddatlarda murojaat qilish asosida bajarilishi mumkin.

Rasm – va video – yozuvga rozilik

Bankomatdan foydalanar ekansiz siz "AVO bank" AJga bankomatni ishlatish davrida rasm va video yozuv qilinishiga roziligidengizni bildirasiz. Yozuvlardan qurilmaning ishi sifatini aniqlash va bahsli holatlarni hal qilish uchun foydalanish mumkin.

Rasm va video yozuvlarni saqlash muddati 180 kunni tashkil etadi. Ko'rsatilgan muddat tugashi bilan yozuvlar yo'q qilinadi.